

THE ESSENCE OF MODERN FOREIGN TRADE STATISTICS

Tohir Fazliddinovich Galiyev

Gulistan State University

E-mail: galiyevtohir@mail.ru

Abstract. The article analyzes the essence and functions of foreign trade statistics. Foreign trade statistics make it possible to study and evaluate a country's import and export activities through numerical data. These statistics play an important role in determining economic development, assessing the trade balance, and shaping foreign economic policy. The article highlights the functions of foreign trade statistics, including data collection, analysis, and their use in economic decision-making. It also emphasizes that foreign trade indicators make it possible to assess the position of the national economy in the international market. The practical significance of statistical tools and methods is also demonstrated in the text. At the same time, it is noted that foreign trade data are used in economic forecasting and strategic planning. The article combines the theoretical and practical aspects of the topic and reveals the importance of foreign trade analysis.

Keywords: foreign trade, statistics, export, import, trade balance, economic analysis, data collection, economic policy, international market, forecasting.

BUGUNGI KUN TASHQI SAVDO STATISTIKASINING MOHIYATI

Galiyev Tohir Fazliddinovich

Guliston davlat universiteti

E-mail: galiyevtohir@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada tashqi savdo statistikasining mohiyati va vazifalari tahlil qilinadi. Tashqi savdo statistikasi mamlakatning import va eksport faoliyatini raqamlar orqali o'rganish va baholash imkonini beradi. Ushbu statistika iqtisodiy rivojlanish, savdo balansini aniqlash va tashqi iqtisodiy siyosatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada tashqi savdo statistikasi vazifalari, jumladan ma'lumot yig'ish, tahlil qilish va iqtisodiy qarorlar qabul qilishda foydalanish yoritilgan. Shuningdek, tashqi savdo ko'rsatkichlari orqali milliy iqtisodiyotning xalqaro bozordagi o'rmini baholash mumkinligi ta'kidlangan. Matnda statistika vositalari va usullarining amaliy ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birga, tashqi savdo ma'lumotlari iqtisodiy prognozlar va strategik rejalashtirishda qo'llanilishi qayd etilgan. Maqola mavzuning nazariy va amaliy jihatlarini birlashtiradi va tashqi savdo tahlilining ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: tashqi savdo, statistika, eksport, import, savdo balans, iqtisodiy tahlil, ma'lumot yig'ish, iqtisodiy siyosat, xalqaro bozor, prognozlash.

Mustaqillikni o'tgan o'n bir yili – juda qisqa tarixiy davrda O'zbekiston nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, siyosiy o'zgarishlarga erishdi. Ma'muriy – buyruqbozlik tizimiga asoslangan jamiyatdan bozor iqtisodiyotiga yo'naltirilgan huquqiy – demokratik davlat shakllantirish yo'lidan borilmoqda. Shuni ham ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz ijtimoiy, siyosiy hamda iqtisodiy hayotida tub o'zgarishlar, islohotlar olib borilmoqda. Iqtisodiy sohadagi islohotlarning yo'nalishlaridan biri Tashqi iqtisodiy faoliyatdir. Tashqi iqtisodiy faoliyat O'zbekiston tarixida yangi yo'nalishlardan biridir, chunki uzoq yillik sobiq sovet tizimida tashqi iqtisodiy aloqalar faqatgina markaz orqali olib borilar edi.

O'tish davrini boshidan kechirayotgan har qanday davlat birdaniga TIANi rivojlantirish uchun o'zini erkin bozor girdobiga tashlab qo'ymaydi. Bunday paytda davlat bosh islohotchi sifatida maydonga chiqishi lozim. Xuddi ana shunday yo'lni O'zbekiston o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.¹

Hozirgi kunga kelib mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali olib bormoqda. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'nalishlaridan biri, tashqi iqtisodiy faoliyatni optimallashtirish (muqobillashtirish) hisoblanadi. Xalqaroni oqilona tartibga solish iqtisodiy rivojlanishda davlatning muhim strategiyalaridan biridir. Bu esa o'z navbatida, mamlakatni o'ziga xos ichki va tashqi iqtisodiy holatini o'rganish, u haqda yetarlicha ma'lumot olish, shu asosda mamlakatni jahon bozoridagi salbiy o'zgarishlardan saqlashni taqozo etadi. Uni tartibga solish, uni istiqbolini belgilashda statistikaning ahamiyati kattadir. Zero ishonchli ma'lumot va tahlil mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatini asosiy strategiyasidir.

Tashqi savdo statistikasi statistikaning ajralmas qismi bo'lib, tarmoq statistikasi hisoblanadi. Tashqi iqtisodiy aloqalar statistikasida gap tovarlar importi, eksporti, xalqaro moliya munosabatlari, ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan shartnomaviy operatsiyalar haqida boradi.

Tashqi savdo esa o'z ichiga eksport va importni oladi. Tashqi savdo mamlakatni moddiy resurslari kamayishi yoki ortishiga tegishli bo'lgan tovar massalari, xizmatlar oqimini bojxona orqali olib o'tilishini ifodalaydi. Statistika tashqi savdoni o'rganishda faqatgina bojxona orqali qonuniy ravishda olib o'tilayotgan tovarlar va xizmatlar oqimini hisobga oladi.²

Tashqi savdo aylanmasi – mamlakatning muayyan davrdagi eksport va import qiymatlari summasi.

Tovarlar eksporti – tovarlarni ularni qaytarib olib kirish majburiyatisiz O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqish.

Xizmatlar (ishlar) eksporti – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan nerezidentlarga, joyidan qat'i nazar, ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

Tovarlar importi – tovarlarni ulami qaytarib olib chiqish majburiyatisiz O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirish.

Xizmatlar (ishlar) importi – O'zbekiston Respublikasining nerezidentlari tomonidan rezidentlarga, joyidan qat'i nazar, ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

Tashqi savdo statistikasi o'zida ikki xarakterni mujassamlashtiradi: statistika faqatgina bojxona chegaralarini kesib o'tayotgan tovarlar va xizmatlarni hisobga oladi hamda statistika chegarani kesib o'tuvchi har qanday tovarni va xizmatni, u hox tijorat asosida, hox notijorat maqsadda o'tishidan qat'iy nazar qiymatini hisobga oladi, ya'ni mamlakat tomonidan olingan har qanday iqtisodiy yordam sifatida berilgan tovarlar esa eksport sifatida qayd qilinadi.

Sobiq ittifoq davrida markazlashgan holda tashqi savdoni hisobga olish 1930 yilda boshlanadi. Shu yildan boshlab, bojxona hisobi markazlashgan holda olib borilib unga barcha ittifoq mamlakatlaridan («Tashqi dunyo»dan) olib

¹ Ayubjonov A.H., Akbarova B.Sh. Xalqaro statistika. – Toshkent, 2019. – B. 172-173; B.Sh. Maxkamov, Sh.Sh. To'rayev. – Toshkent: Metodist, 2019. – B. 142.

² Ayubjonov A.H., Akbarova B.Sh. Xalqaro statistika. – Toshkent, 2019. – B. 172-173.

kirilayotgan va chiqarilayotgan tovarlar hisobga olinadi. O'zbekistonda esa tashqi savdoni hisobga olish maxsus davlat xodimlari tomonidan hisobga olingan bo'lib, tashqi savdo hisobini mamlakatimizda bir necha asr oldin boshlanganligidan dalolat beruvchi manbalar mavjud. Ayniqsa, yirik hududni egallagan Amir Temur davlatida savdoni hisobga olish muhim o'rin tutgan.³

1942-yildan Ittifoq hududida tashqi savdoni tashqi savdo vazirligi hisobga olib boshladi. Bu davrda tashqi savdo vazirligi faqatgina tijorat maqsadida olib kirilayotgan va olib chiqilayotgan tovarlarni hisobga olib edi. 1959- yilda boshlab esa tashqi savdo vazirligi bilan birga bojxona qo'mitasi parallel hisob olib borishni yo'lga qo'yildi.

1991-yildan boshlab esa mustaqillikka erishgan O'zbekiston jahon tajribasini tan olgani kabi, tovar va xizmatlar eksport - importini bojxona qo'mitasi orqali olib bora boshladi.

Avvalambor, eksport va import haqida va uni hisobga olish to'g'risida gap ketganda tashqi savdo hisobini olib borish haqida gapirish lozim. Bojxona xodimlari tomonidan tashqi savdoni rasmiylashtirishda bojxona deklaratsiyalari, tovar va xizmatlarga berilgan yo'l qog'ozlari, tovarlar va xizmatlarni hisobi va ularning shartnoma pasportlari rasmiylashtiriladi. Bojxona chegaralari kesib o'tadi, ammo tashqi savdoda hisobiga olinmaydigan tovar va xizmatlar iboratdir.⁴

Birinchi kategoriyadagi tovarlar bojxona qo'mitasi tomonidan olib boriladigan ichki iste'mol uchun olib kirilayotgan mahsulotlarni mamlakat hududiga qo'yish bilan bog'liq bo'lgan ommaviy tadbirlardir. O'zbekiston importida ushbu tovarlar ulushi o'ta yuqoridir. Eksport haqida gap borganda esa: mamlakat hududida ishlab chiqarilgan, qazib olingan yoki etishtirilgan mahsulotlar, bojxona nazorati ostida qayta ishlangan mahsulotlar, belgilangan bojxona omborlariga olib kelingan tovarlar va ichki iste'mol uchun import qilingan, ammo iste'mol qilinmay qolgan mahsulotlar.⁵

Xulosa qilib aytganda, statistika tovar va xizmatlar import va eksportini o'rganishda bir necha usullardan foydalanadi. Bunday usullar jumlasiga statistikaning umumiy usullaridan: dinamika ko'rsatkichlari, indekslar usuli, grafik va jadvallar usullari, tarkib va salmoqni ifodalovchi ko'rsatkichlar, shu bilan birga balans usuli keng foydalaniladi. Tashqi savdo balansi mamlakat uchun ma'lum muddatda tashqi savdoni holatini yaqqol ko'rsatib beradi. Shu bilan birga tashqi sado balansi mamlakat tashqi savdosi istiqbolini va tashqi savdoga tegishli chora-tadbirlar manbai ekanligini hisobga olish lozim. Tashqi savdoga tahliliy ko'z bilan yondashishda indekslar usuli ahamiyati katta. Chunki zamon va makonda tashqi savdoni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ayubjonov A. H., Akbarova B. Sh. Xalqaro statistika. Toshkent, 2019. – B. 272.
2. Bremer, T., Perger, J., & Schumacher, A. (2025). A methodology to correct and harmonize international trade data in mineral resources. *The International Trade Journal*, 39(4), 371–395. DOI: 10.1080/08853908.2024.2369306.
3. Ferrantino, M. J., Liu, X., & Wang, Z. (2012). Evasion behaviors of exporters and importers: Evidence from the U.S.–China trade data discrepancy. *Journal of International Economics*, 86(1), 141–157. DOI: 10.1016/j.jinteco.2011.08.006.
4. Fertő, I., & Soós, A. K. (2009). Treating trade statistics inaccuracies: The case of intra-industry trade. *Applied Economics Letters*, 16(18), 1861–1866. DOI: 10.1080/13504850701719512.
5. International Monetary Fund. (1993). *A Guide to Direction of Trade Statistics*. Washington, DC: IMF. DOI: 10.5089/9781451948431.071.
6. International Monetary Fund. (2003). *A Manual on Statistics of International Trade in Services*. Washington, DC: IMF. DOI: 10.5089/9781589061286.069.
7. Linsi, L., Burgoon, B., & Mügge, D. K. (2023). The problem with trade measurement in international relations. *International Studies Quarterly*, 67(2), sqad020. DOI: 10.1093/isq/sqad020.

³ N.M.Soatov, X.Nabiyev, A.H.Ayubjonov. – Toshkent, 2019. – B. 552.

⁴ X.A.Shodiyev, X.A.Habibullayev. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2019. – B. 376.

⁵ N.Soatov, G.Tillaxo'jayeva. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2005. – B. 288.

8. Maxkamov B. Sh., To‘rayev Sh. Sh. Toshkent: Metodist, 019. – B. 142.
9. Shodiyev X. A., Habibullayev X. A. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2019. – B. 376.
10. Soatov N. M., Nabiyev X., Ayubjonov A. H. Toshkent, 2019. – B. 552.
11. Soatov N. M., Tillaxo‘jayeva G. Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi, 2005. – B. 288.
12. United Nations. (2013). International Merchandise Trade Statistics: Compilers Manual, Revision 1. New York: United Nations. DOI: 10.18356/baa992f0-en.
13. Yeats, A. J. (1990). On the accuracy of economic observations: Do Sub-Saharan trade statistics mean anything? The World Bank Economic Review, 4(2), 135–156. DOI: 10.1093/wber/4.2.135.

Reviewer:

Abeer Mostafa Mahmoud

Ph.D.

University of Illinois at Chicago

(USA)